



O'ZBEKISTON HUDUDIGA MOSLASHGAN ZAYTUN KO'CHATLARIDAN QALAMCHALAR TAYYORLASH

¹Yuldashyeva Xavasxon Tojidinovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti "Intensiv
sabzavotchilik, bog'dorchilik uzumchilik va issiqxona xo'jaliklari"
kafedrası (PhD) v,b dosenti,

²Toxirjonova Fotima Muzaffar qizi

³Toxirjonova Zuxra Muzaffar qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Mevachilik
vauzumchilik ta'lim yo'nalishi, talaba.

ARTICLE INFO

Received: 08th June 2023

Accepted: 16th June 2023

Online: 17th June 2023

KEY WORDS

Zaytun yevropa, navlari,
biologik xususiyatlari,
mahsuldorligi, hosildorlikning
agrotexnologik usullari.

ABSTRACT

*Maqola iqlimlashtirilgan zaytun navlarining respublika
tuproq-iqlim sharoitlariga moslashishi va fenologiyasiga
bag'ishlangan.*

Zaytun daraxti qurg'oqchilikka, issiq va past haroratga hamda tuproq tipiga juda chidamli o'simliklardan biri bo'lib hisoblanadi. Zaytun o'simligini keyingi 3 yil davomida o'rganish natijasida olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, zaytun o'simligini respublikamiz tuproq – iqlim sharoitiga moslashib bormoqda. Zaytun keltirilgan mamlakatlarda yillik yog'in miqdori 2-3 marta ko'p, havoning nisbiy namligi esa O'zbekistonga qaraganda, yuqori hisoblanadi. Zaytun turlari qurg'oqchilik va havo harorati yuqori bo'lgan respublika tuproq – iqlim sharoitida moslashish jarayoni, bir qator qiyinchiliklarni uchratmoqda. Ushbu o'rganilayotgan zaytunlarning bizning tuproq – iqlim sharoitimizga moslashishi, ularning botanik belgilari va xo'jalik hamda biologik xususiyatlariga qarab, yangi muhitda moslashishi o'rganilmoqda.

Qalamcha qilish muddatiga nafaqat ularning ildiz oluvchanligi, balki qalamchalardagi kurtaklarning uyg'onuvchanliga umumiy rivojlanishi ham bog'liq bo'ladi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, qalamchalarni ekish muddatiga bog'liq 6-12 kunni tashkil etdi. Biroq qalamchalar ertagi muddatlarda ekilganda ushbu jarayon 30 iyunda ekilganga nisbatan 6 kunga tezlashdi. Bunga bog'liq ravishda qalamchalardagi rizogeneznining keyingi fazalari ham birmuncha farqlandi – ildiz ola boshlash 5-6 kunga, yalpi ildiz hosil bo'lishi – 4-7 kunga va kurtaklarning uyg'ona boshlashi – 2 kunga. Rivojlanish fazalari bo'yicha u 6-12, 10-16, 16-24 va 20-22 kunga farqlandi, ya'ni ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ekish muddatlariga ko'ra sezilarli ravishda farqlandi (1.1-jadvalga qarang).



1.1-jadval

Izumrud va Qorako'z zaytun navlaridan qalamchalar tayyorlash va ekish muddatiga bog'liq ravishda rizogenez jarayonlarining kechishi, kun hisobida, 2020-2022 yillar

Qalamchalash muddati	Qalamchalar ekilgandan			
	kallus hosil bo'lishigacha	ildiz hosil bo'la boshlaguncha	yalpi ildiz hosil bo'lishigacha	novda o'sa boshlaguncha
Izumrud navi				
30.05	6	10	16	20
10.06	6	10	17	20
20.06	9	12	19	22
30.06	12	15	21	22
Qorako'z navi				
30.05	6	10	17	20
10.06	6	12	19	24
20.06	10	14	22	23
30.06	12	16	24	23

Qalamchalarning rivojlanishi ham ekish muddatlariga bog'liq bo'ldi. Zaytunning Izumrud navi bo'yicha qalamchalashni har 10 kunga kechiktirish ildiz hosil bo'lishining 7, 12 va 20% ga kamayishini va mos holda may oyidagi muddatda 78,1%, iyun oxirida 63,8% bo'lishiga sabab bo'ldi, ya'ni bir oy mobaynida ildiz hosil bo'lishining pasayishi o'rtacha 14,3% ni tashkil etdi. Buni qalamchalarning ildiz olishi va yer ustki qismining rivojlanishini kuzatish bo'yicha tadqiqotlarimiz yaqqol isbotladi. Yekilgan qalamchalarda ildizchalar 20-25 kunda hosil bo'la boshlaydi, to'liq ildiz olishi uchun 70-80 kun lozim bo'ladi. Ildiz hosil bo'lish davrida kelib suv berish kamaytiriladi. Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida olib borilgan kuzatishlarda 2-4 oy davomida qalamchalar ustiga plyonka tashlab qo'yilib, ildiz oldirildi. Yog'ochlangan bir-ikki yillik novdalardan ko'chatlar tayyorlanadigan bo'lsa qalamchalarning parvarishiga juda qattiq e'tibor berish lozim.

O'zbekiston hududiga moslashtirilayotgan zaytun ko'chatlari bizning tuproq iqlim sharoitiga moslashishi ularning botanik belgilari va xo'jalik hamda biologik xususiyatlariga qarab yangi muhitda moslashishi yoki introduksiyasi hisobga olib o'rganilmoqda.

O'zbekiston hududiga moslashgan tajribalarda ko'paytirish uchun - parxish va qalamcha usullaridan foydalanildi. Qalamcha usulida, biz zaytun daraxtining yonidan o'sib chiqqan 4-5 oy vegetasiya davriga ega bo'lgan novdalardan foydalanildi.

References:

1. Yormatova D.Yo., Xushvaqtova X.S., Yuldasheva X.T. Zaytun yetishtirish usullari. – Toshkent, 2015. –B. 3-11.
2. Yormatova D.Yo., Xushvaqtova X.S., Yuldasheva X.T. O'zbekiston zaytuni. – Toshkent, 2016. – 14-34 b.



3. Bezis Nada, Jurin Valerija. Anatomicheskiye osobennosti masliny (Olea europayea L.): bolshoyekolichestvosklereidov// Zb. sazet. priopsen. 5 Kongr. biol. Hrv., Pula, 3-7 okt., 1994, 1994, S.179-180
4. Farg'ona vodiysi sharoitida iqlimlashtirilgan zaytun navlarini yetishtirish bo'yicha agrotexnik tadbirlar sxemasi (Tavsiyanoma) Toshkent 2019 yil